



LUG'AT VA ENSIKLOPEDIYALARNING FARQLARI VA UMUMIYLIK LARI XUSUSIDA

Yuldashova Adolat Adilbayevna

Stajyor-o'qituvchi

Xorijiy filologiya fakulteti O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: adolat111@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19395794>

Kalit so'zlar: ensiklopediya, leksikon, mental leksikon, ma'lumotnoma asarlar, ensiklopedik lug'at

Ma'lumotnoma asarlari turli xil ko'rinishlarda - lug'atlardan tortib ensiklopediyalargacha, temir yo'l jadvallari, logarifm jadvallari va Sakson Shveysariyasi uchun mo'ljallangan dam olish avtoatlaslarigacha uchraydi, ammo ularning faqat ayrimlarinigina leksikografik asarlar qatoriga kiritish mumkin bo'ladi. Keng ma'noda leksikografik asarlar deb nafaqat tashqi kirish tuzilmasiga ega bo'lgan, balki bu kirish tuzilmasi a) so'zlar, morfemalar va idiomalar kabi leksik birliklarga, ularga tilga oid yoki mazmunga oid ma'lumotlar beriladigan holda; yoki b) ko'rish uchun mo'ljallangan yoki til orqali ifodalangan tushunchaviy birliklarga, ularga til ifodalari biriktiriladigan asarlar tushuniladi. Leksikografik bo'lmagan ma'lumotnoma asarlari sifatida, til birliklarining tartibiga amal qilmaydigan va o'z predmetiga tilga oid ma'lumot bermaydigan rang spektri bo'yicha tashkil etilgan rang jadvallari yoki alohida xaritalari geografik tartibga amal qiladigan atlaslarni misol qilib keltirish mumkin [6;5].

«Lug'at» so'zining semantik doirasida tilshunoslik yoki leksikografiyada qo'llaniladigan yana boshqa atamalar ham mavjud bo'lib, ular bu yerda quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

- Lug'at: tashqi kirish tuzilmasiga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami bo'lib, u so'zlar, iboralar, morfemalar va h.k. kabi leksik birliklar yoki tushunchalar haqida tilga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
- Bosma lug'at: ma'lumot tashuvchi vosita sifatida qog'ozdan foydalanilib chop etilgan lug'at.
- Elektron lug'at: elektron ma'lumot tashuvchida joylashgan lug'at, masalan, CD-ROMda yoki internetda (leksik ma'lumotlar bazasidan farqli ravishda, inson foydalanuvchisiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkonini beradi).
- Ensiklopediya: tashqi kirish tuzilmasiga ega bo'lgan, kitob shaklida yoki elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar to'plami bo'lib, leksik birliklar haqida mazmunga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi (predmet leksikografiyasi mahsuli).
- Leksikon: grammatika, gap semantikasi va h.k. bilan bir qatorda lingvistik nazariyaning tarkibiy qismi bo'lib, aynan leksemalarning xususiyatlari bilan shug'ullanadigan qismidir.
- Mental leksikon: so'zlovchilarning so'zlar va ularning xususiyatlari haqidagi neyronal asoslangan, ichki me'yor sifatida qabul qilingan bilimi bo'lib, psixo- va neyrolingvistik tadqiqot obyekti hisoblanadi.
- Leksik ma'lumotlar bazasi: lug'at mahsulotlari va elektron tilni qayta ishlash qo'llanmalari, masalan, avtomatik tarjima tizimlari, axborotni izlab topish tizimlari, savol/javob tizimlari va h.k. uchun elektron ma'lumotlar asosi [7;5].

Shu bilan birga, Wörterbuch, Lexikon va Enzyklopädie atamallari ham ommabop tilda, ham ayrim leksikografik mahsulotlarni nomlashda juda turlicha qo'llanilishini qayd etish lozim. Lug'at va ensiklopediya o'rtasidagi farq, shubhasiz, eng qiziqarli va nazariy jihatdan eng



murakkab masalalardan biri bo'lib, ushbu ishda nazariy nuqtai nazardan nega ensiklopediya bilan lug'at o'rtasida farq qo'yilishi, so'ngra esa amalda «ensiklopediya» deb ataydigan ma'lumotnoma asarlari bilan «lug'at» deb ataladigan asarlar o'rtasida qanday farqlar mavjudligi tahlil qilinadi.

Misol tarzida *Banane* kabi bir so'zli bilim turiga quyidagi turli shakllar kiradi:

a) tilga oid bilim, ya'ni Banane so'zi haqidagi grammatik, fonetik, orfografik va semantik bilim;

b) banan predmeti haqidagi ensiklopedik bilim, ya'ni bananlarning qanday ko'rinishda va tuzilishda ekanligi, qanday hosil bo'lishi va nimaga aylanishi, ular bilan nima qilish mumkinligi, inson madaniyatida qanday rol o'ynashi va h.k.;

c) epizodik bilim, ya'ni muayyan bananlar bilan bog'liq esda qolgan tajribalar, masalan, oxirgi tushlikda yeyilgan sariyog'da qovurilgan, klen sharbati qo'shilgan bananlar haqidagi xotira;

d) ketma-ketlikka oid bilim, masalan, bananni artish uchun bajarishimiz kerak bo'lgan qo'l harakatlari haqidagi bilimimiz [8;5].

Bu yerda qiziqarli jihat — ensiklopedik bilim bilan til bilimining farqlanishi hisoblanadi. Ayrim sohalarda bu farq mutlaqo muammosizdir. Masalan, fonologik, morfologik va sintaktik ma'lumotlar, shubhasiz, tilga oid ma'lumotlardir. *Banane* so'zi uchta unli va uchta undoshdan iborat, uning bosh kelishik ko'pligi -n fleksiyasi yordamida yasaladi va u jenskiy rodga mansub otdir. Bananning o'zi esa undosh va unlilardan emas, balki po'stloq va meva etidan iborat; u bosh kelishikka emas, balki yengil shirin ta'mga ega; va u ot emas, balki sarg'ish-jigarrang, egilgan meva — botanik jihatdan aniqroq aytganda, Musaceae oilasiga mansub o'simlikning rezavor mevasi bo'lib, uning yumshoq meva eti boshqa mevalar kabi ko'pincha xom holda iste'mol qilinadi. Aynan shu yerda til-leksik ma'lumot bilan predmet-ensiklopedik ma'lumot o'rtasidagi farqlarni ko'rish mumkin.

Lug'at va ensiklopediyalardagi maqolalar tuzilishi va ularning bayon etilishi bir-biridan farq qiladi. Lug'at maqolalaridagi ma'no izohlari muayyan lingvistik-semantik nazariyalarga asoslanadi. Lug'atlardagi maqolalarning qanday ko'rinishga egaligi hamda ensiklopediyalardagi maqolalar qanday izohlanishi to'g'risidagi an'anaviy va eng keng tarqalgan, "Lug'at va ensiklopediya o'rtasidagi asosiy farq shundaki, lug'at so'zlarni, ensiklopediya esa narsalarni tushuntiradi" [3;34] degan qarashni Svit allaqachon keltirib o'tgan. Quyida lug'at va ensiklopediyalardagi maqolalar leksikograflar tomonidan qanday izohlanishini bir nechta lug'at va ensiklopediyalardan olingan misollarda ko'rish mumkin. Avvalambor *Banane* sarlavhali, biri nemis tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan lug'atdan (LANGENSCHIEDT-DAF5-PW), ikkinchisi esa kichik ensiklopediyadan olingan ikki maqolaga nazar tashlaymiz.



Ba-na-ne die; -, -n; e-e längliche, gekrümmte, tropische Frucht mit gelber Schale u. e-m weichen, süß schmeckenden Fruchtfleisch ↑ Abbildung unter <i>Obst</i> K-: Bananen-, -schale, -staude	Banane (Musa), tropische baumartige großblättrige Staude mit palmenartigem Aussehen und deren gelbschalige Frucht. Die vitaminhaltigen Früchte werden grün geerntet und erhalten ihre Reife während des Transports zum Verbraucher. In den Anbaugebieten (Tropen, zum Teil auch Subtropen) ist die Banane Grundnahrungsmittel. Bekannt sind auch die <i>Faser-</i> (Manilahanf) und die <i>Zierbanane</i>. -- Bananenkulturen wurden bereits von den Geographen Alexanders des Großen beschrieben, das heutige Europa kennt sie seit der Entdeckung Amerikas.
---	--

LANGENSCHIEDT-DAF5-PW

(COMPTON-LEX-CW)

Bu yerda ko'rish mumkinki, LANGENSCHIEDT-DAF5-PW dagi ma'no izohi "cho'zilgan", "egri", "shirin", "sariq po'stloq" kabi belgilar jihatidan eng ko'p prototip semantikasi tasavvurlariga tayanadi [12;5].

Ensiklopediya maqolasida ham, xuddi lug'at maqolasidagi kabi, meva haqida uning sariq po'stloqqa egaligi va iste'mol qilinishi mumkinligi haqida ma'lumot keltiriladi, biroq uning o'lchami va shakli haqida hech narsa deyilmaydi. Bundan tashqari, biz bananning vitamin tarkibi, pishish jarayoni, yetishtiriladigan hududlari, uning oziqlanish sotsiologiyasidagi maqomi hamda banan haqidagi bilimlarning tarixiy rivojlanishi, jumladan, Aleksandr Makedonskiy geograflari haqidagi epizodik bilimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ko'rinib turganidek, har ikkala maqola ham tilga oid va predmetga oid ma'lumotlarni turli darajada o'z ichiga oladi. Bu yerda banan misolida faqat bitta holat ko'rib chiqildi. Shu misolning o'zidayoq lug'at va ensiklopediyalar o'rtasidagi farq haqidagi savolga mutlaq javob berishning imkoni yo'qligini ko'rish mumkin [4].

Lara shuni ta'kidlaydiki, odatda til lug'atlarida ensiklopediyalardan farqli ravishda lemma talaffuzi, bo'g'in tuzilishi, fleksiya va sintaksisiga oid ma'lumotlar beriladi, shuningdek, uslub yoki maxsus tilga mansublik haqidagi pragmatik ko'rsatmalar, etimologik ma'lumotlar va qo'llanish namunalari ham keltiriladi. Biroq bu yerda ham mazkur farqlashning qay darajada to'g'ri kelishi aniq leksikografik asar va tegishli lemmalarga bog'liqdir [12;5]. Quyida tilshunoslikka oid lug'atlardan misol keltirilgan bo'lib, biri *Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache* elektron lug'ati hamda *Metzler Lexikon Sprache* ga tegishli hisoblanadi. Ushbu lug'atlardan **Sprache** sarlavhali maqola tanlab olindi.



Sprache die; -, -n

1. ein System von Lauten, von Wörtern und von Regeln für die Bildung von Sätzen, das man benutzt, um sich mit anderen zu verständigen <eine afrikanische, germanische, romanische, slawische Sprache; die deutsche, englische, französische usw Sprache; die geschriebene, gesprochene Sprache; eine Sprache (er)lernen, beherrschen, (fließend) sprechen, verstehen; einer Sprache (Gen) mächtig sein; etwas aus einer Sprache in eine andere übersetzen>: „Wie viele Sprachen sprichst du?“ - „Zwei: Deutsch und Spanisch“

|| K-: **Sprachbeherrschung, Sprachdidaktik, Sprachforscher, Sprachgenie, Sprachgeografie, Sprachgeschichte, Sprachgrenze, Sprachkenntnisse, Sprachkurs, Sprachlehrer, Sprachnorm, Sprachstudium, Sprachsystem, Sprachunterricht ;sprachbegabt; Spracheninstitut, Sprachenschule, Sprachenstudium**

|| -K: **Fremdsprache, Landessprache, Muttersprache, Zweitsprache; Hilfssprache, Kunstsprache, Standardsprache, Umgangssprache, Verkehrssprache, Vulgärsprache, Weltsprache**

2. nur Sg; die Fähigkeit zu sprechen <die menschliche Sprache>: durch einen Schock die Sprache verlieren; herausfinden, ob Affen zur Sprache fähig sind

|| K-: **Sprachfähigkeit, Sprachhandlung, Sprachprobleme, Sprachstörung**

Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache

Sprache

(engl. language, frz. langue, langage) Wichtigstes und artspezif. Kommunikationsmittel der Menschen, das dem Austausch von Informationen dient sowie epistem. (die Organisation des Denkens betreffende), kognitive und affektive Funktionen erfüllt. Der Ausdruck >Spr.< hat zwei elementare Bedeutungskomponenten: (a) Spr. >an sich<, die Bez. der menschl. Sprachbegabung als solcher (frz. faculté du langage), (b) Spr. als Einzelsprache, d. h. die Konkretisierung von (a) in einer bestimmten / Sprachgemeinschaft, zu einer bestimmten Zeit und in einem bestimmten geograph. Raum (frz. ↑ langue) und deren Ausdruck in konkreten Kommunikationsereignissen (frz. 1 parole). 1. Das Verfügen über Spr. gilt seit der Antike als differentia specifica des Menschen gegenüber allen anderen Lebewesen; / Zoosemiotik. Die Fähigkeit, Spr. zu erwerben, ist angeboren. Sie entwickelt sich im Laufe der biolog. Reifung und der Sozialisation jedes Menschen zu einem kompletten System, es sei denn, Sprachentwicklungsstörungen ver- oder behindern diesen Prozess, was zur Entwicklung anders strukturierter, funktional i. d. R. vergleichbarer Kommunikationssysteme führen kann; Gebärden-sprache.

Metzler Lexikon Sprache

Yuqorida keltirilgan lugʻat maqolalaridan koʻrish mumkinki, ikkala lugʻat turidagi izohlar bir-biridan biroz farq qiladi. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache da lugʻat sarlavhasidan keyin otga grammatik izoh, yaʼni uning artikli, koʻplik shakli keltiriladi hamda taʼrifdan, Sprache bilan bogʻliq soʻz birikmalar, misol va raqamlar orqali belgilanib yana boshqa maʼnolari izohlanadi. Shu bilan birga, Sprache bilan uchraydigan qoʻshma soʻzlar, sifatli iboralar, baʼzi ogʻzaki tilda koʻp uchraydigan frazeologizmlar va ularning izohlari ham beriladi.

“Metzler Lexikon Sprache”da esa bundan farqli ravishda “Sprache” tushunchasi koʻp qatlamli, tizimli va universal yondashuv asosida izohlanadi. Taʼrifda til bir tomondan insonning tugʻma qobiliyati (faculté du langage), ikkinchi tomondan esa muayyan til jamoasidagi aniq tizim (langue) sifatida talqin qilinadi. Til fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik darajalardan iborat pogʻonali tizim sifatida tasvirlanadi. Mazkur yondashuv strukturaviy va umumiy tilshunoslik anʼanalariga tayangan holda, tilni biologik asosga ega, biroq ijtimoiylashuv jarayonida shakllanuvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida koʻrsatadi. Grammatik izohlar, yaʼni artikl, koʻplik shakli yoki ushbu soʻz bilan bogʻliq qoʻshma soʻzlar, frazeologizmlar kiritilmagan.



Yuqoridagi keltirib o'tilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, lug'at va ensiklopediyalardagi lug'at maqolalarini keltirish borasida muayyan va qat'iy qoidalar kiritilmagan. Til lug'atlarining ensiklopediya va leksikonlardan farqi shundaki, ularda berilgan ma'lumotlar asosan til o'rganuvchilarning tushunchani yanada yaxshiroq o'rganib, uni yanada rivojlantirishga, u bilan bog'liq iboralarni ham o'rganib so'zning ma'nolarini yaxshiroq tushunishlariga imkon yaratish mo'ljallangan. Leksikon va ensiklopediyalarda esa tushunchaga ilmiy yondashuv orqali batafsil izohlar keltirilgan va asosan soha vakillari va tadqiqotchilar uchun foydali va eng muhim ma'lumotlarni kiritish orqali ularning tushuncha mazmun-mohiyatini keng ma'noda tushunishlariga qaratilgan.

References:

1. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Elektronisches Wörterbuch.
2. Helmut Glück / Michael Rödel. Metzler Lexikon Sprache. J.B. Metzler Verlag, 2016, 837 S.
3. Henry Sweet. The Practical Study of Languages. A Guide for Teachers and Learners, Second impression, London, 1972, 302 S.
4. Reinhold Werner. „Semasiologische und enzyklopädische Definition im Wörterbuch“. In: GOETZ, D.; HERBST, T. (Hrsgn.). Theoretische und praktische Probleme der Lexikographie. München: Max Hueber, 1984, 382-407.
5. Stefan Engelberg / Lothar Lemnitzer. Lexikographie und Wörterbuchbenutzung. Stauffenburg Verlag, 2009, 325 S.